

## “SHARQ TARONALARI”-JAHON MUSIQA SAN’ATI UCHUN MUQADDAS MASKAN

**Shahzoda Olimova**

*Yunus Rajabiy nomidagi*

*O’zbek milliy musiqa san’ati instituti*

*An’anaviy cholg’u ijrochiligi yo ‘nalishi*

*II bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada musiqa insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo’lib, u xalqlarni birlashtiruvchi va madaniy merosni asrab-avaylashga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda O’zbekistonda musiqa san’atiga katta e’tibor qaratilib, har ikki yilda bir marta o’tkaziladigan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. Mazkur maqolada o’zbek xalqining madaniy va ma’naviy merosiga aylanib ulgurgan “Sharq taronalari” musiqa festivali, uning tarixi, ahamiyati va ta’siri haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** sharq taronalari, O’zbekiston, Samarkand, festival, musiqa, xalqaro, chang

**Аннотация:** Музыка является неотъемлемой частью культуры человечества, объединяющей народы и служащей важным фактором сохранения культурного наследия. В настоящее время в Узбекистане уделяется большое внимание музыкальному искусству, и именно этим целям служит международный музыкальный фестиваль “Шарк Тароналари”, который проводится раз в два года. В данной статье рассказывается о музыкальном фестивале “Шарк тароналари”, который уже стал частью культурного и духовного наследия узбекского народа, его истории, значении и влиянии.

**Ключевые слова:** восточные мелодии, Узбекистан, Самарканда, фестиваль, музыка, международный, чанг

**Abstract:** Music is an integral part of human culture, uniting nations and serving as an important factor in preserving cultural heritage. Today, great attention is paid to the art of music in Uzbekistan, and the international music festival “Sharq Taronalari,” held every two years, serves exactly these purposes. This article describes the ‘Sharq Taronalari’ music festival, which has become part of the cultural and spiritual heritage of the Uzbek people, its history, significance, and impact.

**Keywords:** oriental melodies, Uzbekistan, Samarkand, festival, music, international, chang

O’zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov farmoniga muvofiq 1996-yilning 18-oktabr kuni Samarqand shahri “Amir Temur” ordeni bilan mukofotlandi. Shundan buyon har yili yurtimizda “Samarqand kuni” sifatida



nishonlab kelinmoqda. 1997-yildan buyon Samarqand shahridagi Registon maydonida har ikki yilda bir marotaba o’tkazilib kelayotgan ushbu festival dunyoning turli mamlakatlaridan eng iste’dodli xonandalar, raqqosalar va sozandalarni jamlaydi. Shuningdek, “Sharq taronalari” YUNESKO xalqaro madaniy tadbirdilari ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, O‘zbekiston va uning merosi haqida ko‘proq ma’lumot olishni istaganlar uchun ayni muddaodir. Festivalning asosiy maqsadi turli millatlarning an’anaviy musiqa san’atini targ‘ib qilish, xalqlar o’rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlash va musiqa san’ati sohasida tajriba almashishga imkon yaratishdan iborat. Dastlabki festivallardan boshlab, dunyoning turli burchaklaridan mashhur san’atkorlar, musiqa jamoalari va folklor ansamblari ishtirok etib kelmoqda. “Sharq Taronalari” festivali bir necha jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi:

- Madaniy merosni asrash va targ‘ib qilish – Festival turli xalqlarning milliy musiqa an’analari va folklor san’atini keng ommaga tanishtirishga xizmat qiladi.
- Xalqaro madaniy muloqot – Ishtirokchi davlatlar o’rtasida madaniy almashinuvni rivojlantirish va musiqa san’ati orqali do’stona aloqalarni mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.
- Turizm va iqtisodiy ta’sir – Festival xalqaro mehmonlar va sayyoohlarni o‘ziga jalb qilib, O‘zbekistonning turistik jozibasini oshirishga hissa qo‘shadi.
- Iste’dodlarni qo’llab-quvvatlash – Festival yosh va iqtidorli ijrochilar uchun o‘z san’atini namoyish qilish va professional rivojlanish imkoniyatini taqdim etadi.

Festival doirasida quyidagi tadbirdilar o’tkaziladi:

- Xalqaro musiqiy tanlovlari
- Ilmiy-amaliy anjumanlar va seminarlar
- Milliy musiqa va folklor ansamblarining chiqishlari
- Ustoz-shogird an’anasini targ‘ib etuvchi ustaxonalar

Festivalda turli mamlakatlardan kelgan san’atkorlar o‘z milliy cholg‘ulari va an’anaviy musiqiy ijrolari bilan ishtirok etadilar. Ishtirokchilarning ijrosi xalqaro hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi. “Sharq taronalari” festivalining xalqaro maydondagi ta’siri haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, bugungi kunga kelib, festival xalqaro madaniy tadbirdilar qatorida alohida o‘rin egallaydi. Uning o’tkazilishi O‘zbekistonning musiqa san’ati rivojiga bo‘lgan

e’tiborini namoyish etadi va mamlakatning madaniy diplomatiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Festival xalqaro tashkilotlar, jumladan, YUNESKO bilan hamkorlikda o’tkazilib, u xalqaro miqyosda katta e’tibor qozonmoqda. Ko’plab xorijiy san’atkorlar festivalga kelib, O’zbekistonning boy madaniy merosi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo’lishadi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, “Sharq Taronalari” xalqaro musiqa festivali – bu nafaqat san’at bayrami, balki, turli madaniyatlarning o’zaro muloqoti va hamkorligini mustahkamlovchi muhim tadbir hamdir. U musiqa san’atining global darajada rivojlanishiga hissa qo’shib, O’zbekistonning madaniy diplomatiyasini yanada yuksaltirishda muhim rol o’ynaydi.



Shuningdek, 2024-yilda “Sharq Taronalari” XIV xalqaro musiqa festivali doirasida o’tkazilgan saralash bosqichida milliy, jozibador ohanglarimizni o’zida namoyon etib beruvchi qadimiylar cholgusini sanalmish “Chang” bo‘yicha ishtirok etib, faxrli o’rinni qo’lga kiritdim va “Sharq Taronalari” XIV xalqaro musiqa festivali ochilish marosimida ishtirok etish baxtiga tuyassar bo‘ldim. Bu festival musiqiy an’analarni asrab-avaylash va xalqlar o’rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim tadbirlardan biridir. Festival doirasida turli davlatlardan kelgan san’atkorlar bilan ijodiy tajriba almashish va o’zbek milliy musiqa san’atini dunyoga yanada tanitish imkoniyatiga ega bo‘ldim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni-“Sharq Taronalari” xalqaro musiqa festivalini tashkil etish to’g’risida, 1997-yil.
2. YUNESKO rasmiy hujjatlari – Madaniy merosni asrash va an’anaviy musiqa san’atini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro hisobotlar, [www.unesco.org](http://www.unesco.org).
3. O’zbekiston Respublikasi Madaniyat va Turizm vazirligi nashrlari – Festival tarixi va ishtirokchilari haqidagi rasmiy ma’lumotlar, [www.madaniyat.uz](http://www.madaniyat.uz).

4. “Sharq Taronalari” festivalining rasmiy veb-sayti – Festival dasturi, ishtirokchilar va g‘oliblar ro‘yxati, [www.sharqtaronalari.uz](http://www.sharqtaronalari.uz).

5. Mahalliy va xalqaro matbuot manbalari – “Xalq So‘zi”, “Narodnoe Slovo”, “The Guardian” va boshqa gazeta va jurnallar.

6. Akademik tadqiqotlar – An’anaviy musiqa va folklor san’ati bo‘yicha ilmiy maqolalar, O‘zbekiston Milliy kutubxonasi fondidagi manbalar.